

## UZUN TUMANINING DEMOGRAFIK VA IJTIMOYIY-MIGRATSION RIVOJLANISHI

**Tovarova Nilufar Ulug'bek qizi Termiz davlat universiteti talabasi**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxandaryo viloyati Uzun tumanining 2010–2026-yillar oralig'idagi demografik rivojlanish bosqichlari va ijtimoiy-migratsion jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida tuman aholisi sonining o'sish dinamikasi, shahar va qishloq aholisining mutanosibligi, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari, shuningdek, nikoh va ajrashishlar dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Maqolada tumandagi yuqori tabiiy o'sish foni barqaror salbiy migratsiya savdosi bilan kechayotgan iqtisodiy-demografik paradoks manbalari ochib berilgan. Yakunda hududning mehnat resurslaridan unumli foydalanish va demografik bosimni barqaror iqtisodiy o'sishga aylantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.*

***Kalit so'zlar:** Uzun tumani, demografik o'sish, urbanizatsiya, tabiiy o'sish, migratsiya saldosi, mexanik harakat, nikoh va ajrashish.*

### DEMOGRAPHIC AND SOCIO-MIGRATORY DEVELOPMENT OF UZUN DISTRICT

**Tovarova Nilufar Ulug'bek qizi - Student of Termez State University**

***Abstract:** This article analyzes the stages of demographic development and socio-migration processes of the Uzun district of the Surxandaryo region between 2010 and 2026. In the course of the study, the growth dynamics of the district population, the proportion of urban and rural population, birth and death rates, as well as the dynamics of marriages and divorces were studied on the basis of statistical data. The article reveals the sources of the economic-demographic paradox, in which the high natural growth in the district is accompanied by a stable negative migration balance. In conclusion, practical recommendations are put forward for the effective use of labor resources and the transformation of demographic pressure into sustainable economic growth of the region.*

**Keywords:** *Uzun district, demographic growth, urbanization, natural growth, migration balance, mechanical movement, marriage and divorce.*


Surxandaryo viloyatining shimoliy-sharqiy chekka qismida, murakkab tog‘ va tog‘oldi relyef sharoitida joylashgan Uzun tumani o‘ziga xos geo-demografik sig‘imga ega. Tuman umumiy maydoni 1,84 ming km.kv ni tashkil etadi. Ma‘muriy-hududiy jihatdan barqaror mikrotizimga ega: 1 ta tuman markazi (shahar), 9 ta shahar posyolkasi va 77 ta qishloq aholi punktlari mavjud.

Shahar va qishloq aholi punktlarining bunday shakllanishi tumanda aholi o‘ta yuqori darajada tarqoq va qishloq joylarida guruhli (klasterli) joylashganidan dalolat beradi. Relyefning tog‘li xarakteri tufayli aholi asosan daryo vodiylari va tog‘oldi tekisliklarida — yashash va dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan geotizimlarda zich joylashgan.

2010–2026-yillar oralig‘idagi tahlillar Uzun tumanida aholi soni va geografik zichlikning juda tez sur‘atlarda o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. 2010-yil boshida tuman aholisi 139,3 ming kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilda 174,3 ming kishiga, 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra esa 196,7 ming kishiga yetdi. O‘tgan 15 yildan ortiq vaqt davomida aholining umumiy o‘sishi qariyb 41% ni tashkil etdi.

Aholining geo-fazoviy joylashuv tahlili shuni ko‘rsatadiki, agar 2010-yilda hududda o‘rtacha zichlik 1 kvadrat kilometr ga 75,7 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib bu ko‘rsatkich 106,9 kishi/ km<sup>2</sup> ga yetdi. Tabiiy resurslar va yer fondi cheklangan tog‘li hudud uchun bu juda jiddiy geo-demografik bosim hisoblanadi. Aholining mutloq ko‘pchiligi — 150,9 ming nafari (76,7%) hamon qishloq joylarida istiqomat qiladi. Shahar aholisi esa bor-yo‘g‘i 45,8 ming kishi (23,3%). Bu ko‘rsatkich tumanda urbanizatsiya jarayonlarining tabiiy va iqtisodiy omillar ta‘sirida sekin kechayotganini ko‘rsatadi.

### Uzun tumanida shahar va qishloq aholisining taqsimlanishi



**Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi,

[www.stat.uz](http://www.stat.uz)

Uzun tumanidagi geo-demografik muvozanat asosan uning ichki tabiiy salohiyati — an’anaviy yuqori tug‘ilish hisobiga ta’minlanadi. 2010-yilda tumanda 3 483 nafar chaqaloq dunyoga kelgan bo‘lsa, 2025-yil yakunlariga ko‘ra bu ko‘rsatkich 5 445 nafarga (2 611 qiz, 2 834 o‘g‘il bola) yetdi. Tug‘ilish ko‘rsatkichlarining qishloq joylarida yuqoriligi hududiy an’anaviylik va qishloq turmush tarzi bilan bevosita bog‘liq.

Tumanda o‘lim ko‘rsatkichlari demografik o‘shish fonida barqaror va past darajada (2010-yilda 665 kishi, 2025-yilda 752 kishi) saqlanmoqda. Natijada tug‘ilish o‘limdan 7,2 barobar yuqori bo‘lib, tuman doimiy va barqaror tabiiy o‘shish (kengaytirilgan takror barpo bo‘lish) bosqichida ekanligini ko‘rsatadi.

Nikoh va ajrashishlar tuzilmasi ham hududiy sub’yektlar kesimida o‘ziga xos xususiyatga ega. 2025-yilda qayd etilgan 1 501 ta nikohning 75% dan ortig‘i (1 127 tasi) qishloq aholi punktlariga to‘g‘ri keladi. Garchi ajrashishlar soni 2010-yildagi 23 tadan 2025-yilda 181 taga (shaharda 49 ta, qishloqda 132 ta) yetgan bo‘lsa-da, qishloq ijtimoiy muhitida oilalarning barqarorlik koeffitsiyenti shahardagiga qaraganda ancha yuqori saqlanib qolmoqda.

Uzun tumanining iqtisodiy-geografik joylashuvi va mehnat resurslari ko‘pligi undagi mexanik harakat yo‘nalishlarini belgilab beradi. Tuman doimiy ravishda "aholi beruvchi (eksport qiluvchi)" hudud hisoblanadi. 2010–2025-yillar

oralig'ida ko'chib keluvchilar soni minimal darajada (yiliga o'rtacha 300–500 kishi) saqlangan bo'lsa, ko'chib ketuvchilar oqimi juda kuchli bo'lgan. Ayniqsa, 2020-yilgi pandemiya va undan keyingi iqtisodiy faollik davrida tumandan 1 983 kishi ko'chib ketgan. 2025-yilda esa ko'chib ketuvchilar 720 kishini, ko'chib keluvchilar atigi 308 kishini tashkil etgan.

Tahlil qilingan barcha yillarda migratsiya saldosi salbiy (manfiy) ko'rinishga ega bo'ldi (2010-yilda -263 kishi, 2020-yilda eng yuqori -1560 kishi, 2025-yilda esa -412 kishi). Ushbu salbiy saldoning iqtisodiy-geografik sababi — tumanda demografik bosim (mehnat resurslari ko'payishi) va urbanizatsiya darajasining pastligi sababli yosh kadrlarning markaziy iqtisodiy rayonlarga (Termiz shahri, Toshkent aglomeratsiyasi) yoki xorijiy davlatlarga "o'qish va ish" maqsadida chiqib ketishidir.

Ushbu makon-vaqtli migratsiya disbalansining asosiy sababi — tuman qishloqlarida aholi zichligi va mehnat resurslari ko'payayotgan bir sharoitda, mahalliy ish o'rinlari hamda urbanizatsiya infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Natijada, yosh va mobil iqtisodiy faol aholi viloyat markaziga (Termiz sh.), poytaxt aglomeratsiyasiga hamda tashqi mehnat bozorlariga (ichki va tashqi migratsiya oqimlari ko'rinishida) chiqib ketishga majbur bo'lmoqda.

Uzun tumani hududiy jihatdan "ishchi kuchi va aholi zaxirasi o'ta yuqori, ammo geo-iqtisodiy sig'imi cheklangan" tipik agrar hudud hisoblanadi. Tabiiy o'sish hisobiga har kvadrat kilometrda tushayotgan demografik bosimning ortishi ( $106,9$  kishi/km<sup>2</sup>) yer va suv resurslariga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Hududda demografik inqiroz (ishsizlik, ichki migratsiyaning kuchayishi) oldini olish uchun "qishloq urbanizatsiyasi" modelini qo'llash, ya'ni yirik qishloq fuqarolar yig'inlarida va shahar posyolkalarida mahalliy xomashyoga asoslangan sanoat tugunlarini yaratish orqali aholini o'z hududida saqlab qolish strategiyasini ishlab chiqish zarur.

## **Xulosa**

Kuchli ichki tabiiy o'sishga qaramay, tuman doimiy ravishda salbiy migratsiya saldosiga (2025-yilda -412 kishi, 2020-yilda esa rekord darajadagi -1560 kishi) ega. Hududiy ish o'rinlarining yetishmasligi sababli eng iqtisodiy faol yosh qatlam (ishchi kuchi) boshqa yirik iqtisodiy markazlarga (Termiz, Toshkent) yoki xorijiy davlatlarga ko'chib ketishga majbur bo'lmoqda.

Uzun tumanida demografik bosimni barqaror iqtisodiy o'sishga aylantirish uchun "qishloq urbanizatsiyasi" modelini qo'llash, ya'ni shahar posyolkalari va yirik qishloqlarda mahalliy xomashyoga asoslangan kichik sanoat zonalarini tashkil etish hamda mehnat resurslarini qishloq xo'jaligidan muqobil xizmat ko'rsatish tarmoqlariga diversifikatsiya qilish zarur.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"* – T.: Adolat 2022
2. *O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. Toshkent, O'zbekiston, 2014 yil.*
3. *Soliev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi).* –T.: 2009.
4. *Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik.* - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
5. *Bo'rieva M.R., Tojieva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari.* – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.